

4. MAVZU: Microsoft Word muharririda jadvalli va grafikli axborotlarni qayta ishlash texnologiyasi


Matnli Hujjatlarni qayta ishlash uchun MS WORD dasturi ishlatiladi.

Jadvallar yacheykasida matnlar, rasmlar bilan ishlash mumkin. Hujjatning istalgan qismiga jadval o'rnatish mumkin. Buning uchun quyidagi buyruqlar ketma-ketligini tanlash kerak:

Hujjatning jadval o'rnatilishi kerak bo'lgan o'ringa kursor o'rnatiladi;

2. Menyudan → Tablitsa → Vstavit

Tablitsa buyruqlarini tanlanadi.



Quyidagi muloqotli oyna xosil bo'ladi:

3. Jadval uchun kerakli bo'lgan ustunlar va satrlar soni muloqotli oynaning maxsus bo'limlaridan tanlaniladi.

4. «OK» tugmachasi tanlanadi. Hujjat tarkibiga jadval joylashib kursor jadvalning birinchi yacheykasiga joylashadi.

Jadvallarni formatlash uskunalar panelidagi «Tablitsi' i granitsi'» bo'limidan boshqariladi.



Jadvallardagi ustun kengligini o'zgartirish uchun quyidagi amallarni bajarish zarur:

Kursorni ustun chegarasida sichqoncha ko'rsatkichi ko'rinishni qabo'l qilgandan so'ng, sichqonchanning chap tugmasi bosilgan xolatda o'ng tomonga siljitib jadvalning ustun chegarasi o'zgartiriladi.

Jadvallardagi qator balandligini o'zgartirish uchun quyidagi amallarni bajarish zarur:

Kursorni ustun chegarasida sichqoncha ko'rsatkichi ko'rinishni qabo'l qilgandan so'ng, sichqonchanning chap tugmasi bosilgan xolatda siljitib jadvalning qator balandligi o'zgartiriladi.

Jadval tarkibidagi yacheyklarni yo'qotish uchun avval yacheykalar belgilanib, so'ngra klaviaturadan "Delete" tugmasi tanlanadi.

Jadval tarkibidagi barcha qator yoki ustunlarni o'chirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

Jadvalning o'chirilishi kerak bo'lgan qator yoki ustun yacheykasiga kursor o'rnatiladi;

Gorizontal menyu satridan **Tablitsa** → **Udalit** → **Yacheyki** buyruqlar ketma-ketligi tanlanib, "Udalenie yacheek" muloqotli oynasi xosil qilinadi.

"Udalit vsyu stroke" yoki "Udalit ves stolbets" buyruqlaridan biri tanlanadi.

So'ng "OK" tugmasi bosilishi natijasida qator yoki ustun o'chiriladi.


Jadval tarkibiga ustun yoki qator qo'shish uchun quyidagi amallar bajariladi:

Yangi ustun yoki yangi satr qo'shilishi kerak bo'lgan yacheykaga kursor o'rnatiladi;

Gorizontal menyu satridan quyidagi buyruqlar ketma - ketligi tanlanadi:

Tablitsa → **Vstavit** → **Tablitsa**.

Jadvalga nechta ustun yoki nechta qator qo'shilishi kerak bo'lsa, shuncha qator yoki ustun belgilanishi kerak.



JADVALNI AVTOMATIK RAVISHDA FORMATLASH

Microsoft Word dasturi tayyor javallarning bir necha ko'rinishlarini taklif etadi.

1. Jadvalning ixtiyoriy yacheykasiga kursorni o'rnatish.


2. **Tablitsa** → **Avtofomat tablitsa** buyruqlarini gorizontal menyudan tanlang. Natijada muloqotli oyna ochiladi.

3. Ushbu oynadagi "Stili tablits" dan kerakli ko'rinish ustiga sichqoncha ko'rsatkichi olib borib kerakli ko'rinish tanlanadi. Oynaning quyida "Obrazets" (namuna) bo'limida tanlangan jadvalning ko'rinishi namoyon bo'ladi.


4. "Primenit" yoki klaviaturadan "Enter" tugmasi bosilsa, tanlangan jadvalning formati joriy jadvalga o'rnatiladi.

5. Kolontitul o'rnatish

Kolontitul bu saxifa tarkibidagi matnning o'zgarimas qismi xisoblanib, saxifaning yuqorigi yoki quyi qismida joylashtiriladi. Kolontitulni o'rnatish uchun gorizontal menyu satridan **Vid—Kolontituli'** buyruqlari tanlaniladi. Natijada saxifaning yuqori qismida kolontitul yozilishi uchun yozuv maydonchasi ajratiladi.



Shu bilan birga kolontitulni boshqarish uchun mo'ljallangan uskunalar paneli xam ochiladi.



пиктограмма. Колонтитулга saxifaning tartib raqami o'rnatiladi.

пиктограмма. Колонтитулга Hujjat necha saxifadan iborat bo'lsa ana o'sha ko'rsatkich o'rnatiladi.

пиктограмма. Saxifa tartib raqami formatini o'zgartirish uchun mo'ljallangan muloqotli oyna ochiladi.

пиктограмма. Колонтитулга Hujjat yaratilgan kun sanasi joylashtiriladi.


пиктограмма. Колонтитул tarkibiga kolontitul o'rnatilgan vaqt joylashtiriladi.

пиктограмма. Колонтитулning joylashish o'rni tanlanadi.

пиктограмма. Колонтитул yozilishi uchun ajratilgan yozuv maydonchasidan chiqish uchun ishlatiladi.


saxifalarni tartiblash

Saxifa tartib raqamlarini o'rnatish uchun gorizontall menuy satridan Vstavka — Nometa stranits buyruqlari tanlanadi. Natijada quyidagi oyna ochiladi:





Xosil bo'lgan oynaning Polojenie bandida saxifaning yuqori yoki quyi qismi belgilanadi. Oynaning Vi'avnivanie bandidan tartib raqamining gorizontall yo'nalishdagi vaziyati belgilanadi. Oynadagi Format tugmasi orqali ichki oyna ochiladi.

Bu oyna orqali saxifa tartib raqamlarining formati o'zgartiriladi va OK tugmasi bosiladi.¹




6. Hujjatni saqlash

Hujjatni saqlash uchun gorizontaal menyu satridan Fayl—Soxranit buyruqlari yoki unga mos keluvchi uskunalar panelidagi  piktogrammasi yoki klaviaturadan Shift+F12 tugmalari birgalikda bosiladi. Natijada quyidagi muloqotli oyna ochiladi:





Bu buyruqlar birinchi bor bajarilishida saqlash operatorining maxsus oynasi ochiladi. Bu oynaning «Папка» bandiga Hujjat saqlanish manzili, «Имя файла» bandiga esa Hujjat nomi, Тип файла bandidagi variantlardan Hujjat tipi tanlaniladi. Quyida ana shu ro‘yxatga tegishli fayl tiplarini ko‘rishimiz mumkin.




Hamma ko‘rsatkichlar kiritib bo‘lingandan so‘ng OK tugmasi bosiladi. Agar yuqoridagi saqlash buyruqlari takror bajarilsa muloqotli oyna xosil bo‘lmaydi. Hujjat eski nom bilan eski manzilda saqlanadi. O‘zgartirish ishlari olib borilgan Hujjatni yangi nom va yangi manzilda saqlash lozim bo‘lsa, u xolda gorizontaal menyu satridan Fayl—Soxranit kak ... buyruqlari yordamida saqlash operatorining muloqotli oynasi ochiladi va tegishli o‘zgartirishlar kiritilib OK tugmasi bosiladi.²

Word dasturida diagramma yaratish, ular ustida ishlash va chop etish


Ko'p xollarda Hujjat uchun diagrammalar Excel dasturida yaratiladi. Lekin diagrammani Word matn muharririda ham yaratishimiz mumkin. Buning uchun biz menyular satridan Vstavka menyusining Risunok-Diagramma komandasini beramiz. Agar uskunalar panelida diagramma  piktogrammasi bo'lsa, uni tanlash yo'li bilan ham ishchi soxaga diagramma va uning parametrlarini belgilovchi jadvalni joylashtirishimiz mumkin. Hujjatda tayyor jadval bo'lib, uning diagrammasini yaratmoqchi bo'lsak, u xolda jadvalni belgilab olib, menyular satridan Vstavka – Risunok- Diagramma komandasini tanlasak yoki uskunalar panelidan diagramma piktogrammasini bossak, diagramma parametrlarini belgilovchi jadvalda bizning Hujjatdagi jadval parametrlari asosida yaratilgan diagrammani yaratishimiz mumkin. Agar Hujjatda jadval bo'lmasa, u xolda ishchi soxada xosil bo'lgan jadvalga o'zimizning parametrlarimizni kiritishimiz mumkin.




Ekranida diagramma va jadval xosil bo'lishi bilan dasturning uskunalar paneli elementlari diagramma rejimiga o'tadi. Bu rejim uskunalar paneli elementlari yordamida diagramma elementlarini taxirlashimiz mumkin. Belgilangan nuqtalardan diagramma o'lchami kattalashtiriladi (4-rasm). 4-rasm. Diagrammani kattalashtirish.

Menyu satridagi  (5-rasm) tip diagramma yoki menyudagi (6-rasm) Diagramma – Tip diagrammi' punktidan diagramma tiplarini tanlaymiz. Diagramma punkti chiqish uchun diagrammaga kiramiz (diagramma ustida siqchoncha chap tugmachasi 2 marta bosiladi).³

³ Step by step Microsoft Word 2013 224-243 pages.




5-rasm.




6-rasm.

Yana bir usuli diagramma soxasida sichqoncha o'ng tugmachasi bosiladi va menyudan tip diagramma tanlanadi (7-rasm).



7-rasm.

Masalan: Gistogrammali tipdan grafik tip o'tkazish uchun Grafik tanlanadi (8-rasm).



8-rasm.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Медицинская информатика, Учебно-методическое пособие для студентов 2 курса медицинских вузов специальностей «Лечебное дело», «Педиатрия», «Стоматология», Симферополь 2012, Под редакцией П.Е. Григорьева
2. Медицинская информатика, Учебное пособие, Куделина О.В., Хлынин С.М., – Томск: СибГМУ, 2009
3. КОНСПЕКТЫ ЛЕКЦИЙ по курсу «ИНФОРМАТИКА для студентов направлений ИТ, ТАТУ, Ташкент, 2011
4. Программа развития компьютеризации и информационно-коммуникационных технологий на 2002-2010 годы. (Приложение №1 к постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 июня 2002, №200.)
5. Biomedical Informatics Computer Applications for Health Care and Biomedicine, Edward X. Shortliffe, James J. Cimino, New York, USA, 2014

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Operating System Concepts Essentials, Abraham Silberschatz, Peter Baer Galvin, Greg Gagne, Copyright © 2011 John Wiley & Sons, Inc

Internet saytlari:

1. [http:// google.ru](http://google.ru)
2. lex.uz
3. ziyonet.uz
4. referatlar.uz
5. twirpx.com